

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“AVTOMOBILSOZLIK” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO`YICHA

T U S H I N T I R I S H X A T I

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Dizel dvigatellarida yonilg`i purkash
forsunkalari va ularning zamonaviy turlarini tahlil qilish.

Bitiruvchi: "Avtomobilsozlik va traktorsozlik" yo`nalishi
4-kurs 085-11-guruh talabasi:

_____ **O.Yusupov**

Fakultet dekani: _____ **N.Xalilov**

Kafedra mudiri: _____ **T.Almatayev**

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: _____ **N.Ikromov**

Maslahatchilar: _____ **I.Saydaliyev**

_____ **A. Abduraxmonov**

Andijon – 2015 yil

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“MASHINASOZLIK” fakulteti

“AVTOMOBILSOZLIK” kafedrası

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISH BO`YICHA

T O P S H I R I Q

Yusupov Otabek

1. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: Dizel dvigatellarida yonilg'i purkash forsunkalari va ularning zamonaviy turlarini tahlil qilish.

Institut bo'yicha 2014 yil 26-noyabrdagi 194-sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun ma'lumotlar:

Mavzu bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlar, statistik kuzatishlar, soha bo'yicha qonun va qarorlarni bajarilishi kabilar.

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar:

1) Kirish. Bu qismda talaba soha bo'yicha Respublikamizda erishilayotgan yutuqlar, transport vositalarning konstruktiv o'zgarishlari va avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari to'g'risida ma'lumotlar beradi.

2) Mavzuning dolzarbligi. Bu qismda talaba mavzuni hozirgi kundagi dolzarbligi va uning kelesidagi samarasi yoritiladi.

3) Adabiyotlar sharxi. Ilmiy - texnika adabiyotlar va soha bo'yicha fan adabiyotlarining qisqacha sharxi keltiriladi.

4) Asosiy qism. Mavzuning asosiy vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash printsiplari kabi asosiy va nazariy ma'lumotlar keltiriladi.

5) Texnologik qism. Mavzu bo'yicha uning tayyorlanishi, qismlarga ajratilishi, ularni yig'ish jarayonlarining texnologiyalari va taklif etilayotgan konstruksiyaning loyihalari keltiriladi.

6) Iqtisodiy qism. Mavzu bo'yicha qilinayotgan loyihaning yoki konstruksiyasining iqtisodiy yechimlari keltiriladi.

7) Hayot faoliyati xavfsizligi qismi. Mavzu bo'yicha vositalarni xavfsizligini ta'minlovchi asosiy shartlar, mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari, muhofazalovchi va saqlovchi vositalari kabi ma'lumotlar keltiriladi.

8) Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan yuqorida qilingan ishlar bo'yicha umumiy xulosa va takliflar keltiriladi.

9) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati. Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagi veb saytlarning ro'yhati keltiriladi.

10) Ilova. Mavzu bo'yicha maxsus jadvallar, rasmlar va internetdan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi.

4. Bitiruv malakaviy ishining chizmalari ro`yhati:

- 1) 1-chizma. Dizel dvigateling ta`minlash tizimi.
- 2) 2-chizma. Dizelli dvigatellar uchun Common-Rail tizimi.
- 3) 3-chizma. Dizel dvigatellarida yonilg`i purkash tizimining turlari.
- 4) 4-chizma. Dizel dvigatellarida yonilg`i purkash forsunkalari va ularning zamonaviy turlari.

5. Bitiruv malakaviy ishi qismlari bo`yicha maslahatchilar:

№	Bitiruv malakaviy ishining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	05.01.2015	12.01.2015		Ikromov N
2	Mavzuning dolzarbligi	13.01.2015	30.01.201		Ikromov N
3	Adabiyotlar sharxi	02.02.2015	27.02.2015		Ikromov N
4	Asosiy qism	02.03.2015	31.03.2015		Ikromov N
5	Texnologik qism	01.04.2015	30.04.2015		Ikromov N
6	Iqtisodiy qism	01.05.2015	15.05.2015		
7	Hayot faoliyati xavfsizligi qismi	17.05.2015	30.05.2015		Abduraxmonov A
8	Xulosa va takliflar	01.06.2015	06.06.2015		Ikromov N
9	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	08.06.2015	11.06.2015		Ikromov N
10	Ilova	10.06.2015	13.06.2015		Ikromov N
11	1-chizma	02.03.2015	31.03.2015		Ikromov N
12	2-chizma	01.04.2015	30.04.2015		Ikromov N
13	3-chizma	01.05.2015	15.05.2015		Ikromov N
14	4-chizma	17.05.2015	06.06.2015		Ikromov N

6. Topshiriq berilgan sana: 05.01.2015 yil

7. Tugallangan bitiruv malakaviy ishini topshirish sanasi: 11.06.2015 yil

Bitiruv malakaviy ishi rahbari: t.f.n., Ikromov N

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi: Yusupov O

Kafedra mudiri: t.f.n. dots, T.O. Almatayev

MUNDARIJA

I. KIRISH	5
II. MAVZUNING DOLZARBLIGI	8
III. ADABIYOTLAR SHARXI	11
IV. ASOSIY QISM	16
4.1. Umumiy ma`lumotlar	16
4.2. Dizel dvigatelining ta`minlash tizimi	18
4.3. Dizelli dvigatellarda yonilg`i uzatilishini elektron boshqarish tizimi	21
V. TEXNOLOGIK QISM	23
V.1. Dizel dvigatellarida yonilg`i purkash forsunkalari va ularning zamonaviy turlarini tahlil qilish	23
VI. IQTISODIY QISM	43
VI.1. Dizel dvigatellarida yonilg`i purkash forsunkalariga texnik xizmat ko`rsatish jarayonini iqtisodiy hisobi	43
VII. HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGI QISMI	49
VII.1. Avtomobillardan chiqayotgan yonilg`ilarni atrof-muhit va ekologiyaga ta`siri	49
VIII. XULOSA VA TAKLIFLAR	53
IX. ADABIYOTLAR RO`YXATI	56
X. ILOVA	58

I. KIRISH

Hozirgi zamon ishlab chiqarishi ekologik tanglikni keltirib chiqardi. Ishlab chiqarish esa hozirgi zamon texnikasiga asoslangan. Texnikaning manbai esa fandır. Demak, ekologik qiyinchiliklar fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liqdir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ko'plab zamonaviy ishlab chikarish korxonalari, jumladan, avtomobilsozlik sanoati vujudga keldi. Birgina misol, to'qsoninchi yillar boshlarida taxminan har 15 oilaga bitta avtotransport vositasi to'g'ri kelgan bo'lsa, hozir taxminan 4 oilaga bir avtotransport vositasi to'g'ri kelmoqda. Bu yaxshi natija, albatta, ammo avtotransport vositalari soni ortib borgan sari ulardan, ayniqsa, eski avtotransport vositalaridan atrof - muhitga tarqalayotgan zararli gaz moddalari miqdori belgilangan me'yordan ancha ziyoda bo'layotir. Avtotransportni yangi, ekologik bezarar yonilg'i turlari va tejimli dvigatellarga o'tkazish, ko'chalar chekkasiga ko'plab daraxtlar ekish hamon atrof - muhit holatini yaxshilashdagi muhim muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Jumladan, avtotransport vositalaridan atmosferaga, inson va biosferaga aks ta'sir etuvchi moddalar, ya'ni yonilg'ini yonishi natijasida ajralib chiqadigan gazlar tarkibidagi zararli komponentlar karbonat angidrid, azot oksidlari, uglevodorodlar. Benzinda ishlaydigan avtomobillardan qattiq, zarralar va qurumdan tarkib topgan chang, dizel yonilg'isida ishlaydigan dvigatellardan azot oksidlari tarqaladi. Bu gazlar miqdori avtotransport vositasining nosozlik darajasi oshgani sayin ortib boraveradi. Chunki yonilg'i to'liq yonsa, shuncha kam miqdorda zararli moddalar komponenti ajralib chiqadi.

Amerikalik mutaxassislarning ma'lumotlariga qaraganda, aholi ko'p yashaydigan shaharlarda avtotransportning ishlashidan chiqarilgan zararli unsurlar havo ifloslantirilishining 60 foizini tashkil etar ekan.

Atrof - muhitni ifloslantiruvchi manbalarga (umumiy ifloslantirishning 42 foizini tashkil etadi) yonilg'ilarni yoqib foydalaniladigan qo'zg'almas moslamalar (21 foiz), sanoat jarayonlari (14 foiz), qattiq, chiqindilar (5 foiz), boshqa manbalar (18 foiz) kiradi. Uglerod oksidi (CO), oltingugurt oksidi (CO₂), azot oksidi (NO), uglevodorodlar (CnHm), bo'lakchalar kabi moddalar ifloslantiruvchi moddalarning

asosiy turlari hisoblanadi. Masalan, har yili O`zbekistonda 2900 ming tonnadan ziyod ifloslantiruvchi modda, jumladan, 182,7 ming tonna uglevodorod, 129,6 ming tonna uglerod oksidi, 117 ming tonna azot oksidi, 542 ming tonna oltingugurt oksidi atrofga tarqaladi.

Uglerod oksidi va uglevodorodlar ko`rinishida ifloslantiruvchi manbalarning asosiysi, umumiy zaharli moddalarning 50 - 60 foizi avtotransportga to`g`ri keladi.

Atrof - muhitni muhofaza qilish yuzasidan ilk chora - tadbirlar AQShda 1970 yilda **“Avtomobillar chiqaradigan gazlar bo`yicha me`yorlar”** to`g`risida qabul qilingan federal qonun avtotransport vositalaridan chiqayotgan gazlar tarkibidagi zararli moddalar miqdorini keskin chegaralab qo`ydi. Bugungi kunga kelib bu chegaralar yanada qat`iylashdi. Agar bu borada xukumat dasturi amalga oshsa, 90 - yillarga kelib avtotransport vositalari chiqaradigan gazlar tarkibidagi azot va uglevodorodlar hamda uglerod oksidi 1970 yilgi darajaga nisbatan taxminan 90 foizga qisqarishi zarur edi.

Atmosfera ifloslanishi muammolari bizning respublika uchun ham muxim muammolardan biri hisoblanadi. Jumladan, poytaxtimiz Toshkent shaxri atmosfera havosining ifloslanishida shahar avtotransportining hissasi 80 foizdan ortadi. Andijon viloyatida esa bu ko`rsatkich 60 foizdan ortadi [1-4].

Shunga ko`ra O`zbekiston Respublikasida atmosferani himoya qilish maqsadida choralar ko`rilgan. Shunga muvofiq bir qator me`yoriy hujjatlar qabul qilingan. Masalan, O`zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksida **“Transport vositalari va boshqa qatnov vositalari, hamda qurilmalarining egalari ishlatilgan gazlardagi ifloslantiruvchi moddalarning miqdori va ular fizikaviy omillarining zararli ta`sir ko`rsatishi normativlariga rioya qilishini ta`minlashlari shart”** degan modda bor.

Avtotransport vositalarining bir yilda bir marotaba texnik ko`rikdan o`tkazilishi va ekologik soliq to`lashi bilan bir qatorda avtotransport muammosini hal etish uchun texnik va iqtisodiy chora - tadbirlarni qo`llash maqsadga muvofiqdir.

Avtomobil dvigatelidan chiqariladigan ishlatilgan gazlarning zararlovchi komponentlarni kamaytirishning bir qator usullari mavjud. Bular orasida eng maqbuli avtomobilning texnik soz holatini saqlash bilan erishiladi.

Uglerod oksidi va uglevodorodlarning bo`linishi dvigatelning tirsakli valini ikki xil tezlikda aylanishi uchun salt yurish tartibida aniqlanadi. Avtomobillardan foydalanishda uglerod oksidi 3 foizgacha ruxsat etiladi. Bular YHX idoralari tomonidan tekshiriladi.

Ishlatilib bo`lingan gazlarning tutuni dvigatel yuqori tartibda ishlaganida 15 foizdan oshmasligi kerak.

Atrof - muhitni muhofaza qilishning chora - tadbirlarini ishlab chiqish va joriy qilish bilan ijtimoiy - iqtisodiy va ekologik samaralarga erishiladi. U avvalambor, atrof - muhitga bo`lgan salbiy ta`sirni kamaytirish va uning holatini yaxshilash, zararli moddalar kontsentratsiyasini va ifloslantirish hajmini kamaytirishda (atmosfera, suv xavzalarida, yer qatlamlarida) namoyon bo`ladi.

Muhitni ximoyalash chora - tadbirlarini amalga oshirishdagi to`liq iqtisodiy samarani aniqlashda atrof - muhitning buzilish natijasida vujudga keladigan salbiy natijalarga ega bo`lgan barcha xududlardagi nobudgarchiliklarni kamaytirishni hisobga olish zarur.

Bu muhitni himoyalash chora - tadbirlarini amalga oshirayotgan korxona va tashkilotlarda iqtisodiy samarani umumiy hisobga olish zarurligini belgilaydi.

Atrof - muhitga chiqariladigan zararli moddalarni kamaytirish yonilg`i sarfini kamaytirish bilan erishiladi. Qancha kam yonilg`i yoqilsa, shuncha ishlatilgan gazlar miqdori kam bo`ladi. Demak, mos ravishda zararli komponentlar kam bo`ladi. Bu xolatga kam litrajli avtotransport vositalari qo`l keladi.

II. MAVZUNING DOLZARBLIGI

Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va aholining hayot darajasini ko'tarishda transportning o'рни va mohiyati beqiyosdir. Transport ishlab chiqarishning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Uning asosiy vazifasi mamlakatning turli-tuman yuklar va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan talab-ehtiyojini qondirish, mintaqalar orasida mehnat taqsimotini ta'minlash va tashqi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishdan iborat. Transport ishlab chiqaruvchi kuchlarning mamlakat bo'ylab joylashishi va rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Transport ham sanoat, ham qishloq xo'jaligining turli xil mahsulotlarini yaratishda va ularni iste'molchilarga yetkazib berishda faol qatnashadi. Yo'lovchilarni bir manzildan ikkinchi bir manzilga tashishda ham transportning ahamiyati katta. Transport xududlar taraqqiyotiga ulkan ta'siri ko'rsatish bilan birga, transport taraqqiyotining o'zi ham iqtisodiyot rivoji, texnika taraqqiyoti darajasi bilan bevosita bog'liq.

Ekspluatatsiyadan olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, avtomobilning ishlatish davomida sarflangan barcha harajatlarning 50% dan ortiqrog'i uning dvigatelini texnik soz holatda ushlab turish uchun sarflanadi.

Zamonaviy avtomobil dvigatellarining ish vaqti birligida sifat o'zgarishlarini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlaridan biri dvigatelning ishonchliligidir. Bu ko'rsatkich orqali dvigatellarning mavjud bo'lgan va yangi konstruktsiyalarini takomillashtirish mumkin bo'libgina qolmay, balki ularning ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Avtotransport dvigatellari ishonchliligini oshirishning asosiy omillaridan biri qo'llanilayotgan konstruktsion va yoqilg'i moylash materiallarining (YoMM) sifatini oshirishdir.

XX asrning oxirida elektronika va mikroprotssessor texnikasini katta sur'atlar bilan rivojlanishi, ularni avtomobillarda keng joriy qilinishiga, xususan dvigatel, transmissiya va qo'shimcha jihozlarni ishini elektron boshqarish tizimlarini yaratilishiga olib keldi. Elektron boshqarish tizimlarni qo'llanilishi yonilg'i sarfini va chiqindi gazlarni zaharliligini kamaytirish, dvigatel quvvatini va

avtomobil xavfsizlik darajasini oshirish, haydovchini ishlash sharoitlarini yaxshilash imkoniyatini beradi [4-5].

Oxirgi yillarda dunyoda sodir bo'layotgan energetik va ekologik tanglik ko'p rivojlangan mamlakatlarda avtomobillarning chiqindi gazlarining toksinligini va yonilg'i sarfini cheklovchi me'yoriy xujjatlarni qabul qilinishi EBT larni kengroq qo'llanilishiga kuchli turtki bo'ldi. Chunki, bu me'yoriy hujjatlarga ko'ra, dvigatelning deyarli barcha ish rejimlarida yonilg'i aralashmasi stexiometrik tarkibda ushlab turilishi, majburiy salt ishlash rejimida dvigatelga yonilg'i uzatilishini to'xtatilishi, o't oldirish yoki yonilg'i purkash daqiqasini aniq va optimal rostdanishi talab qilinadi. O'tkazilgan ko'p ilmiy tadqiqotlar yuqoridagi talablarni elektron boshqarish tizimlarsiz bajarish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Dvigatellarni elektron boshqarish tizimlaridan eng keng tatbiq topganlari- yonilg'i uzatish va o't oldirish (*benzinli dvigatellarda*) jarayonlarini boshqarishdir. Bu boshqarish tizimlari mustaqil va birgalikda ishlashi mumkin. Ilk bor elektron boshqarish tizimlari benzinli dvigatellarda yonilg'ini purkash jarayonida qo'llanilgan bo'lsa, hozirga kelib bu rivojlangan tizimlar nafaqat benzinli, gazli dvigatellarda keng tarqalibgina qolmay, balki dizelli dvigatellarning ta'minlash tizimida dizel yonilg'isini purkashda elektron boshqaruv tizimlardan foydalanib kelinmoqda. Bu esa albatta yonilg'ini to'la yonishiga, dvigatelni quvvatini oshishiga, dvigatelni shovqinsiz ishlashiga, zaharli gazlarni kamaytirishga va eng asosiysi yonilg'i tejamkorligiga erishib kelinmoqda.

Dizel ta'minlash tizimi samaradorligini oshirishda yonilg'i uzatuvchi asboblari va aralashma tayyorlash asboblari bilan birgalikda yonish kamerasining shakli hamda ularda havo harakatini va yonilg'i kiritishni tashkil qilishning ta'siri alohida ahamiyatga egadir. Keltirilgan omillar birgalikda quyidagilarni ta'minlashi lozim: dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi va yuklanmaga bog'liq ravishda yonilg'ini mumkin qadar aniq dozlash; yonilg'ini muayyan paytda, ya'ni porshenni yuqori chekka nuqtaga kelishini o'rnatilgan burchagida uzatish; uzatishni, valni buralish burchagi bo'yicha optimallashtirish; yonilg'ining yonish kamerasini butun hajmi bo'yicha yaxshi to'zitish va taqsimlash; nasos va forsunkalarning dastlabki

sozlangan holatini buzmasdan dvigatelni uzoq vaqt ishlatish demakdir. Dizellarda yonilg`ini purkash havo bilan ish aralashmasini silindr bo`shlig`ida harakatlantirish usuli yonilg`i yuborish qurilmalari hamda yonish bo`linmasining konstruksiyasiga bog`liq bo`ladi.

Zamonaviy avtomobil dvigatellarining ish vaqti birligida sifat o`zgarishlarini belgilovchi asosiy ko`rsatkichlaridan biri dvigatelning ishonchliligidir. Bu ko`rsatkich orqali dvigatellarning mavjud bo`lgan va yangi konstruksiyalarini takomillashtirish mumkin bo`libgina qolmay, balki ularning ishlash samaradorligini oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Demak, yuqoridagi ma`lumotlardan ko`rinib turibdiki, avtomobil dvigateli soz ishlashi, bu dvigatelda yonilg`i optimal darajada sarflanishini, tashqi muhitga chiqayotgan zaharli gazlar miqdorini kamligi, kerakli agregatlarga kuchni to`liq uzatilishi va shu kabi faktorlarga bog`liqdir. Dvigatelni soz holda ushlab turish ishlab chiqarish jarayonida dvigatelda qo`llanilayotgan materiallarning puxtaligiga, ishonchliligiga bog`liq bo`lsa, undan foydalanish jarayonida esa unga ko`rsatilayotgan texnik xizmatning sifatiga bog`liq bo`ladi deb o`ylayman.

Shuning uchun men ushbu bitiruv malakaviy ishimni **“Dizel dvigatellarida yonilg`i purkash forsunkalari va ularning zamonaviy turlarini tahlil qilish”** mavzusida izlanishlar olib borishni o`z oldimga maqsad qilib oldim.

III. ADABIYOTLAR SHARXI

Bitiruv malakaviy ishimni bajarish uchun men bir nechta adabiyotlardan va manbalardan foydalandim. Quyida eng asosiy ma`lumotlar olingan adabiyotlar va manbalar hamda ulardan olingan ilmiy ma`lumotlar sharxi keltirilgan.

E.Sharaev va Q.Rasulov “Avtomobillar konstruksiyasining rivojlanish istiqbollari” ma`ruzalar matnida avtomobilsozlik tarixi, ichki yonuv dvigatellari va avtomobil, mamlakatimizda avtomobilsozlikning rivojlanish bosichlari, avtomobil va tabiatni, inson salomatligini muhofaza qilish, transport vositalarining klassifikatsiyasi, belgilanishi va texnikaviy xarakteristikasi, avtomobilning umumiy tuzilishi avtomobillar konstruksiyasining rivojlanish istiqbollari, avtomobillar tipaji, avtomobil konstruksiyasiga qo`yiladigan talablar, avtomobillar kompanovka sxemalar tahlili kabi tushunchalar yoritilib berilgan [4].

A.A. Akilov, A.A. Qahhorov, M.X. Sayidov “Avtomobilning umumiy tuzilishi” darsligida Avtomobilning umumiy tuzilishi darsligi «V» toifali avtotransport vositalari haydovchilarini tayyorlash o`quv dasturiga asosan yozilgan bo`lib, IIV oliy ta`lim muassasalarida Avtomobil tayyorgarligi fanini o`qitish uchun mo`ljallangan. Darslikda avtomobilsozlikning tarixi, rivojlanish bosqichlari, tuzilishi, texnik (servis) xizmat ko`rsatish va ta`mirlash, tizim va mexanizmlarning tuzilishi, ishlashi hamda ularda uchraydigan ayrim nosozliklar bayon etilgan. Shuningdek, Respublikamizda va chet davlatlarda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar to`g`risida ham ma`lumotlar mavjud [5].

X. Mamatov “Avtomobillar” o`quv darsligining 1-2-qismlarida avtomobil mexanizmi va tarmoqlarining vazifasi, umumiy tuzilishi, ishlash uslubi hamda konstruktiv xususiyatlari, hozirgi vaqtda jumhuriyatimizda ko`p tarqalgan avtomobillarning konstruksiyasi misolida ularning shassisiga kiruvchi qismlari tahlil va talqin etilgan. Shuningdek, unda xususan avtomobilning shassiga taalluqli bo`lgan kuch uzatma, yurish va boshqarish qismlariga kiruvchi tizim va mexanizmlarning vazifasi, ishlashi va ishlash sharoiti tavsiflangan bo`lib, ularning konstruktiv xususiyatlari esa taqqoslash uslubi orqali bayon etilgan. Bundan tashqari avtomobillarni umumiy tuzilishiga oid bo`lgan kuch uzatmasi tarkibiga kiruvchi

asosiy uzatma, differentsial va yarim o`qlarning konstruktiv xususiyatlari haqida ma`lumotlar berilgan [6-7].

E.Fayzullaev va boshqalar “Transport vositasining tuzilishi va nazariyasi” darsligida zamonaviy avtomobillarning konstruktiv yangiliklarini va mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan “Tiko”, “Neksiya”, “Damas”, “Matiz” yengil avtomobillari va “Uzotayo`l” yuk avtomobillari bundan tashqari VAZ, GAZ, KamAZ avtomobillari konstruksiyasi misolida avtomobilning asosiy qismlari, mexanizm va sistemalarining vazifasi, tuzilishi, ishlash printsiplari, turlari hamda konstruktiv xususiyatlari batafsil bayon etilgan [8].

F.V. Gurin, V.D. Klepikov, V.V. Reyn. “Avtomobilsozlik texnologiyasi” darsligi 1-kitobida avtomobil va traktor detallarini tayyorlash texnologik jarayonlarini loyihalashning asosiy qoidalari bo`yicha, asosiy tushunchalar, zagatovka turlari va ularni yasash, asos va uning turlari, kesib ishlash aniqligi, yuza sifati, kesib ishlov berish uchun qo`yim, konstruksiyaning texnologiyabopligi, detallar zagatovkasi yuzasiga ishlov berish usullari, kesib ishlov berish moslamalari, kesib ishlash texnologik jarayonlarini loyihalash, kesib ishlash texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish kabi boblarda mavzular to`la yoritilgan [9].

Sh.P. Magdiev, H.A. Rasulov. “Avtomobil va dvigatellarga texnik xizmat ko`rsatish, ta`mirlash”. Kasb-hunar kollejlari uchun o`quv qo`llanmaning to`ldirilgan va qayta ishlangan 3-nashrida asosan avtotransport harakatlanuvchi tarkibiga texnik xizmat ko`rsatish asoslari, avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlashda qo`llaniladigan jihozlar, avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash texnologiyasi, avtotransport korxonalarida moddiy-texnika ta`minoti va resurslarni tejash, avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va joriy ta`mirlash ishlarini tashkil etish, avtomobillar servisi kabi boblarda avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash jarayonlari va ularning me`yorlari, kerakli jihozlar kabi mavzular to`la yoritilgan [10].

S.M. Babusenko “Traktor va avtomobillar remonti” darsligi mashinalarning buzuqliklari, buzilish sabablari va uning oldini olish choralari, detallarni tiklashning zamonaviy usullari va traktor va avtomobillarni remont qilish texnologiyasi hamda

ularni tashkil etish bo`limlarida traktor va avtomobillarning ishonchliligi, mashinalarga diagnostika qo`yish, ishdan chiqqan detallarni qayta tiklash, mashinalarni tozalash, traktor va avtomobillarni remontga qabul qilish, qismlarga va yaroqli-yaroqsizga ajratish, mexanizmlarni, tizimlarni va elektr jihozlarni ta`mirlash jarayonlari keng yoritib o`tilgan [11].

Q.H. Mahkamov, A. Ergashev “Avtomobillarni ta`mirlash” darsligi avtomobillarni ta`mirlash, avtomobillarning tubdan ta`mirlash texnologiyasi, detallarni ta`mirlash usullari, detallar, qismlar va agregatlarni ta`mirlash texnologiyasi, avtomobillarni ta`mirlash korxonalarining ishlab chiqarish bo`limlarini loyihalash boblarida avtomobillarni ta`mirlashning asosiy qoidalari, avtomobil detallarini ta`mirlash jarayonlari, avtomobilning agregat va qismlarini ta`mirlash kabi mavzulari yuzasidan batafsil tushunchalar keltirilgan [12].

E.C. Kuznetsov, A.P. Boldin va boshqalar. “Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi” qayta ishlangan va to`ldirilgan ruscha 4-nashridan tarjima qilingan darslikda avtomobil transporti va texnik ekspluatatsiyasining asosiy rivojlanish yo`nalishlari, avtomobillarning texnik holati va ishlash qobiliyatini ta`minlash usullari, avtomobillarning sifat ko`rsatkichlari va ishonchliligi, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi me`yorlarini aniqlash usullari, avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va ta`mirlash ishlarini tashkil etish, avtomobil transportida moddiy-texnik ta`minot va resurslarni tejash, avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining taraqqiyot istiqbollari keltirilgan [13].

O.Hamraqulov, Sh.Magdiyev “Avtomobillarning texnik ekspluatatsiyasi” darsligida amaliy faoliyatdagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati. Ya`ni avtomobillarga texnik xizmat ko`rsatish va joriy ta`mirlash texnologiyasi, hamda avtotransport korxonalarida ishlab chiqarishda qo`llaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagi tarkibga moddiy-texnik ta`minotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstremal tabiiy-iqlim va yo`l sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi, hamda maxsuslashtirilgan harakatdagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta`sirining yo`nalishlari va ularni kamaytirish yo`llari keltirilgan [14].

A.Omirov, A.Qayumov “Mashinasozlik texnologiyasi” o`quv qo`llanmasi mashinasozlik texnologiyasi, mashina detallarining sirtlariga mexanik ishlov berish usullari, mashinalarning turdosh detallariga mexanik ishlov berishning kompleks texnologiyalari va mashinalarni yig`ish texnologiyalari qismlarida mashinalarni ishlab chiqish, mexanik ishlov berish xatoliklari va ularni hisoblash usullari, texnologik jarayonlarning unumdorligi va tejamliligi, detal yuzalariga ishlov berish, detallarga ishlov berishning zamonaviy usullari, yig`ish jarayonlarining tavsifi, va yig`ish jarayonlarini avtomatlashtirish kabi ko`plab mavzular ta`la bayon etilgan [15].

G`.M. Qosimov “Transport korxonalarida menejment” darsligi transport va texnika xizmati ko`rsatish korxonalarida menejmentning predmeti va tahlil usuli, boshqarish jarayonlarini tashkil etishning nazariy asoslari, boshqarish jarayonlarini tashkil etish xususiyatlari, korxonalar faoliyatini tejimli tashkil etish asoslari, aholi avtomobillariga texnika xizmati ko`rsatish korxonalarida texnik xizmat ko`rsatish va joriy ta`mirlashni tashkil etish, transport va texnika xizmati ko`rsatish korxonalarida ish joyini tashkil etish va ularni texnologik loyihalash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiot boyliklaridan oqilona foydalanish bo`yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish kabi mavzular bo`yicha ma`lumotlar keltirilgan [16].

K.X. Maxkamov, T.O. Almatayev. “Mashinalar puxtaligi” o`quv qo`llanmasida avtomobil va qishloq xo`jaligi mashinalari usun ishonchlilik, mashinalarni remont qilish asoslari, detallarni remont qilish texnologiyasi haqida ma`lumotlar berilgan [17].

G`.Yo. Yormatov, O.R. Yuldashev, A.L. Hamrayev “Hayot faoliyati xavfsizligi” darsligida ob - havo sharoiti va inson faoliyati, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarida shamollatish qurilmalariga qo`yiladigan asosiy talablar, changlangan havoni tozalash qurilmalari, shovqindan saqlanish, texnika vositalarida xavf - xatarlar va ulardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish qonunlari va tashkiliy asoslari va yong`inni oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlari to`g`risida kerakli ma`lumotlar berilgan [18].

Yu.Qirg`izboyev, Z.Inog`omova, T.Rixsiboyev “Texnik chizmachilik kursi” darsligida chizmalar haqida umumiy ma`lumotlar, chiziq turlari, shriftlarning yozilish tartiboti, masshtablar, chizmalarga qirqim berish usullari, burchak shtamplarining ko`rinishi, chizmalarga o`lchamlar qo`yish usullari va shu kabi ma`lumotlar berilgan [19].

Shunindek bir qator internet saytlari va ilmiy-amaliy konferantsiya materiallar, gazeta hamda jurnallar orqali kerakli ilmiy texnik ma`lumotlar oldim [20-26].

IV. ASOSIY QISM

4.1. Umumiy ma'lumotlar.

Oxirgi 10 yil ichida, ayniqsa o'zimizning Neksiya avtomobili chiqa boshlagandan keyin o'zbek avto havoskorlar orasida yonilg'i purkash, injektor, elektr benzonasos kabi atamlar tez-tez ishlatila boshlandi. Vaholanki, ichki yonuv dvigatellariga o'rnatilishga mo'ljallangan purkash tizimi jahon avtomobilsozligida o'tgan asrning 50 yillaridan joriy qilina boshlagan bo'lib o'ziga yarasha tarixga ega. Sababini aytishim qiyin, lekin sobiq Ittifoqda chiqarilgan bironta ham avtomobilga o'ta samarali bo'lgan purkash tizimi o'rnatilmagan edi.

Ma'lumki zamonaviy benzinli dvigatellarda yonilg'i silindrlarning yonish kamerasiga karbyurator vositasida yoki purkash tizimi yordamida uzatiladi.

XX asrning oxirida elektronika va mikroprotssessor texnikasini katta sur'atlar bilan rivojlanishi, ularni avtomobillarda keng joriy qilinishiga, xususan dvigatel, transmissiya va qo'shimcha jihozlarni ishini elektron boshqarish tizimlarini (EBT) yaratilishiga olib keldi. Elektron boshqarish tizimlarni qo'llanilishi yonilg'i sarfini va chiqindi gazlarni zaharliligini kamaytirish, dvigatel quvvatini va avtomobil xavfsizlik darajasini oshirish, haydovchini ishlash sharoitlarini yaxshilash imkoniyatini beradi [4-6].

Oxirgi yillarda dunyoda sodir bo'layotgan energetik va ekologik tanglik ko'p rivojlangan mamlakatlarda avtomobillarning chiqindi gazlarining toksinligini va yonilg'i sarfini cheklovchi me'yoriy xujjatlarni qabul qilinishi EBT larni kengroq qo'llanilishiga kuchli turtki bo'ldi. Chunki, bu me'yoriy xujjatlarga ko'ra, dvigatelning deyarli barcha ish rejimlarida yonilg'i aralashmasi stexiometrik tarkibda ushlab turilishi, majburiy salt ishlash rejimida dvigatelga yonilg'i uzatilishini to'xtatilishi, o't oldirish yoki yonilg'i purkash daqiqasini aniq va optimal rostlanishi talab qilinadi. O'tkazilgan ko'p ilmiy tadqiqotlar yuqoridagi talablarni elektron boshqarish tizimlarsiz bajarish mumkin emasligini ko'rsatdi.

Dvigatellarni elektron boshqarish tizimlaridan eng keng tatbiq topganlari- yonilg'i uzatish va o't oldirish (*benzinli dvigatellarda*) jarayonlarini boshqarishdir. Bu boshqarish tizimlari mustaqil va birgalikda (*masalan, Neksia avtomobilida*)

ishlashi mumkin. Benzinli dvigatellarga o`rnatilgan o`t oldirishni elektron boshqarish tizimi o`t oldirishni ilgarilatish burchagini katta aniqlik bilan belgilash, hamda majburiy salt yurish ekonomayzer ishini boshqarish vazifasini bajaradi.

Elektron antiblokirovka tizimi sirpanchiq yo`lda avtomobilni tormozlanish masofasini deyarli ikki marta qisqartiradi va uni yoni bilan surilib ketishiga yo`l qo`ymaydi. Bu og`ir obi-havo sharoitlarida (*yomg`ir, qor, yaxmalak*) ko`p yo`l-transport hodisalarini oldini oladi.

Elektron boshqarish tizimi qo`shimcha jihozlardan oynatozalagich, burilish relesi, avtomobil darakchilari va konditsionerlarni ishini ham boshqaradi.

4.2. Dizel dvigatelining ta'minlash tizimi.

Dizel ta'minlash tizimining karburatorli dvigatel ta'minlash tizimidan farqi ish aralashmasini hosil qilish va uni alangalatish usulidadir.

Karburatorli dvigatelda kiritish taktida silindrlarga karburatorda havo va benzindan tayyorlangan yonuvchi aralashma kiritilsa, dizelda esa sof havo kiritiladi. Siqish taktining oxirida karburatorli dvigatelda ish aralashmasi elektr uchqunidan alangalansa, dizelda esa silindrda siqilgan havoga dizel yonilg'isi purkaladi. Purkalgan yonilg'i mayda tomchilarga ajralib, yonish kamerasining butun hajmiga taqsimlanib, bug'lanadi, havo bilan aralashadi va ish aralashmasini hosil qilib, o'z-o'zidan alangalanadi. Dizelda yonilg'ini yetarli darajada mayda zarrachalarga ajratish va yonilg'i mash'alini uzoqqa otiluvchanligini ta'minlashga, yonilg'ini yuqori bosim ostida purkalishi evaziga erishiladi.


Dizel ta'minlash tizimi samaradorligini oshirishda yonilg'i uzatuvchi asboblari va aralashma tayyorlash asboblari bilan birgalikda yonish kamerasining shakli hamda ularda havo harakatini va yonilg'i kiritishni tashkil qilishning ta'siri alohida ahamiyatga egadir. Keltirilgan omillar birgalikda quyidagilarni ta'minlashi lozim: dvigatel tirsakli valining aylanishlar chastotasi va yuklanmaga bog'liq ravishda yonilg'ini mumkin qadar aniq dozlash; yonilg'ini muayyan paytda, ya'ni porshenni yuqori chekka nuqtaga kelishini o'rnatilgan burchagida uzatish; uzatishni, valni buralish burchagi bo'yicha optimallashtirish; yonilg'ining yonish kamerasini butun hajmi bo'yicha yaxshi to'zitish va taqsimlash; nasos va forsunkalarning dastlabki sozlangan holatini buzmasdan dvigatelni uzoq vaqt ishlatish.

Dizellarda yonilg'ini purkash havo bilan ish aralashmasini silindr bo'shlig'ida harakatlantirish usuli yonilg'i yuborish qurilmalari hamda yonish bo'linmasining konstruksiyasiga bog'liq bo'ladi. YaMZ va KamAZ dizellarida yonilg'ini purkash tarmog'i yuqori bosim nasosi va har bir silindrga yopiq holda o'rnatilgan forsunkadan iborat. Bu dvigatellarining ta'minlash tarmog'i asosiy ikkita: **past va yuqori bosim shaxobchalaridan** iborat. Past bosim shaxobchasi yonilg'ini bakdan yuqori bosim nasosiga uzatadi. Yuqori bosim shaxobchasi esa ma'lum miqdordagi yonilg'ini ma'lum vaqtda dvigatelning silindrlariga uzatadi.

YaMZ dvigatellari ta'minlash tarmog'ining tuzilishi 1 – rasmda keltirilgan. Bak 2 dan yonilg'i, xaydash nasosi 20 hosil qilgan siyraklanish ta'sirida, dag'al filtr 22 ga yuboriladi. Bu filtrdan yonilg'i mayin tozalash filtri 7 ga, undan yonilg'i naychasi 10 orqali yuqori bosim nasosi 19 ga o'tib, bu nasos yordamida 15 MIIa (150 kgk/sm^2) ga yaqin bosim ostida yonilg'ini purkash forsunkasi 17 ga yuboriladi. Yuqori bosim nasosida yig'ilib qolgan ortiqcha yonilg'ining bosim 15 MIIa (150 kgk/sm^2) ga tenglashganda o'tkazib yuborish klapani 13 ochilib, qaytarish naychalari 4 orqali yonilg'i bak 2 ka oqib tushadi. Forsunka 17 tirqishlaridan tomib oqib chiquvchi yonilg'i bakka naycha 18 orqali qaytadi [5-7].

Tarmoqda yonilg'i bilan dastlabki to'ldirish jarayoni xaydash nasosi 20 ning korpusidagi qo'l - yuritmal nasos 12 yordamida amalga oshiriladi. Yonilg'i bilan kirgan havoni tashqariga chiqarib yuborish uchun tiqin 9 va 14 da parmalangan tekshikchalar bor. Tarmoqda yonilg'ini tozalovchi asosiy filtr 7 va dag'al filtr 22 hamda bakning bo'g'izidagi to'r - simli tozalagich 3 dan tashqari, yonilg'i qabul qilgich 1 qopqog'ida va forsunka 17 ning shtutseri 16 da to'r-simli tozalagichlar bor.

Minsk, Kremenchug va KamAZ avtomobil zavodlarida ishlab chiqariladigan dizelli avtomobillarga katta sigimli (100...255 l) yonilg'i baklari o'rnatiladi. Katta sigimli baklar uta mustaxkam bo'lishi kerak. Ularga o'ta mustahkam qo'rg'oshinli po'latdan ichiga bir nechta ko'ndalang to'siqlar o'rnatilgan. Bak yoniligi bilan qopqoqli bo'g'iz orqali to'ldiriladi. Bo'g'izda yonilg'iga aralashib qolgan metall zarrachalarni tutib qoluvchi to'r simli tozalagich bor. Yonilg'i baki avtomobil ramasiga o'rnatiladi.



1-rasm. Dizel dvigatelining ta`minlash tizimi.

1-yuqori bosim yonilg`i nasosi, 2-yonilg`i baki, 3-qabul qilgich, 4,6,7,11-15-yonilg`i trubkalari, 5-dag`al tozalash filtri, 8-haydovchi nasos, 9-rukoyatka, 10-mayin tozalash filtri, 16-forsunka, 17-havo filtri, 18-silindr.


4.3. Dizelli dvigatellarda yonilg`i uzatilishini elektron boshqarish tizimi.

Hozirgi vaqtda yengil va yuk avtomobillarining dizel dvigatellari ishini boshqarishning kompyuter tizimini qo`llash ko`proq tus olmoqda. Bu tizimlarda (2-rasm) ko`rib chiqilgan kabi datchiklar va boshqarish shakllari ishlatiladi, EBB esa datchik - 6 yordamida reyka – akkumulyatordagi – 7 bosimni nazorat qiladi va forsunkalar – 8 orqali avtomobil hamda dvigatelning ishlash tertibiga mos ravishda yonilg`ini davriy yetkazib berishni va yonilg`ini purkash burchagini ilgarilatib berishni elektrik boshqarishni ta`minlaydi.

Yonilg`i baki - 1 dan filtr va yonilg`i haydovchi nasos – 3 orqali, EBB yordamida nazorat qilinib turiluvchi yuqori bosimli yonilg`i nasosi – 4 yordamida reyka – akkumulyatorga yetkaziladi. Bu vaqtda yonilg`ining bosim kattaligi reduksion klapan – 5 orqali o`rnatiladi va EBB yordamida nazorat qilinadi.

Kompyuterlashgan dizel dvigatelli zamonaviy avtomobillarda yonilg`ini purkash bosimi, har bir forsunkada bir – biridan kam farq qilgan holda, 130 – 150 MPa gacha oshirilgan, bunga o`z navbatida hamma forsunkalar uchun umumiy bo`lgan reyka – forsunkalarini qo`llash bilan erishiladi. Ba`zi bir dvigatellarda forsunka sifatida pirkagichlar (nasos – forsunkalar) ishlatiladi, ular dvigatelning taqsimlash validagi kulachoklar yordamida harakatga keltiriladi.

Kompyuterlashgan dizel dvigatellarining texnik holatini aniqlash va tiklash uchun yuqorida ko`rilgan kabi diagnostik lampa orqali o`qiladigan nosozlik kodlaridan, texnik xizmat ko`rsatish texnologiyasidan, nosozliklarni izlash va bartaraf qilish algoritmlaridan foydalaniladi [9-10].




2-rasm. Umumiy bosim akkumulyatorli va reykali dizel dvigatelining ishini boshqarish tizimi.

1-yonilg`i baki, 2-filtr, 3-yonilg`i haydash nasosi, 4-yuqori bosimli nasos, 5-bosim datchigi, 6-yonilg`ining reyka-akkumulyatori, 7-forsunkalar, 8-o`lchash datchiklaridan chiquvchi elektr zanjirlar, 9-elektron boshqarish bloki.

V. TEXNOLOGIK QISM

V.1. Dizel dvigatellarida yonilg`i purkash forsunkalari va ularning zamonaviy turlarini tahlil qilish.

Hozirgi vaqtda yengil va yuk avtomobillarining dizel dvigatellari ishini boshqarishning kompyuter tizimini qo`llah ko`proq, tus olmoqda. Bu tizimlarda (3-rasm) ko`rib chiqilgan kabi datchiklar va boshqarish shakllari ishlatiladi. EBB esa datchik yordamida reyka-akkumulyatordagi bosimni nazorat qiladi va forsunkalar orqali avtomobil hamda dvigatelning ishlah tartibiga mos ravishda yonilg`ini davriy yetkazib berishni va yonilg`ini purkash burchagini ilgarilatib berishni elektron boshqarishni ta`minlaydi.



3-rasm. Common-Rail tizimi.


1-yonilg`i baki, 2-yonilg`i filtri, 3-yuqori bosimli yonilg`i nasosi, 4-yonilg`i trubasini sozlagich, 5-yonilg`i rampasi, 6-rampaning bosim datchigi, 7-forsunka, 8-gaz taqsimlash valining holati datchigi, 9-kiritish quvuri tadchigi, 10-yuklanish bosimi datchigi, 11-havo massasini o`lchagich, 12-yonilg`i temperature datchigi,

13-cho`g`lanish shamining boshqaruvchisi, 14-elektron boshqaruv bloki, 15-cho`g`lanish shami, 16-dvigatelning temperatora datchigi, 17-tirsakli valning aylanishlar soni datchigi, 18-CAN, 19-haydovchining gaz pedal datchigi, 20-tormoz pedali yoqgichi, 21-mufta pedal yoqgichi, 22-AGR-klapani, 23-yuklama klapani, 24-past bosimli nasos, 25-turbonadduv.

Benzinli dvigatellarda yonilg`ini purkash tizimlarining turli avlodlari (K-Jetronik, KE-Jetronik, L-Jetronik, LH-Jetronik, Mono-Jetronik, ME-Motronik, ... va hokao) bo`lgani kabi dizelli dvigatellarda yonilg`i purkashning yangi avlodi Common-Rail tizimidir. Bu tizim ham o`zining rivojlanish bosqichiga ega bo`lib, quyida biz dizel dvigatellarda yonilg`ini purkashni elektron boshqaruvchi tizim haqida fikr yuritamiz (4-rasm).

Bu Common Rail yonilg`i purkash tizimining 3 avlodi asosan Dizel yonilg`isi bilan ishlaydigan avtomobillarda qo`llanilib kelinmoqda. Masalan, zamonaviy avtomobillardan biri bu AUDI A8 markali V-simon 6 silindrli (V6) to`liq ish hajmi $3,0 \text{ sm}^3$ li (Piezo-Inline-Injektoren) ya`ni bosim bilan ishlaydigan Ijektordir. Uning bosimi 180-240 MPa (1800-2400 bar) ga yetadi.

“**Common-Rail**” yonilg`i purkash tizimi “**Umumiy taqsimlovchi rampa**” ma`nosini anglatib, u asosan yonilg`ini elektron purkashda tartibga solingan yuqori bosim tizimning umumiy taqsimlovchi rampasiga yuqori bosimli yonilg`i nasosi tomonidan yuboriladi. Taqsimlash rampasidan yonilg`i elektro-gidro-mexanikli boshqariluvchi injektorlar asosida silindrlarning yonish kamerasiga bevosita purkab beriladi [11-13].



4-rasm. Bosh firmasi ishlab chiqarilgan Common Rail 3 –avlodi.

Forsunkaning boshqacha nomi injektor ya`ni purkagich ma`nosini anglatadi. Bu forsunkalardan keng foydalanish dizelli dvigatellarning yonilg'i bilan ta`minlash tarmog'ining eng asosiy elementlaridan hisoblanib, dizel yonilg'isini bug` holda yuqori bosim ostida silindrlarning yonish kamerasiga ish siklining ikkinchi taktining oxirida qizib turgan 700-1000 °C havoga dizel yonilg'isini purkab alangalanishni sodir qiladi.


Forsunkalardan benzinli va dizelli dvigatellarda foydalaniladi. Zamonaviy dvigatellarda forsunkalar elektron bosharuvli yonilg'i purkash tizimlari bilan qo`llaniladi.

Yonilg'ini purkash forsunkalarini asosiy quyidagi turlar mavjud:

- ✓ Elektr magnitli;
- ✓ Elektr gidravlikli;
- ✓ Piezoelektrik.

Elektr magnitli forsunka. Elektr magnitli forsunkalar benzinli dvigaellarda o`rnatiladi. Forsunkani tuzilishi juda oddiy qilingan bo`lib, u ignali elektr magnitli klapan va to`zitgich plastinadan iborat.

Elektr magnitli forsunka quyidagicha ishlaydi. Ta`minlash tizimining barcha datchiklari elektron boshqaruv blokka dvigatelning yuklamasi haqidagi axborotni kuchlanish turida beradi va qisqa vaqt ichida EBB ma`lumotlarni algoritmik hisoblab elektr magnitli forsunkaning elektr magnit chulg`amiga kerakli kuchlanishdagi tokni yuboradi. U yerda fizik jarayon hosil bo`lib, chulg`amdagi magnit maydonining miqdoriga qarab magnitli klapan ochilib yonilg`ini purkalishini hosil qiladi. Elektr magnit kutblariga kuchlanish EBB tomonidan uzilganda prujina forsunka ignasini o`z joyiga qaytaradi.




5-rasm. Elektr magnitli forsunka.

- 1-yonilg`i filtri, 2-rezina qobiqli elektr toki bilan ulanadigan joy, 3-prujina, 4-elektr magnitli chulg`am, 5-elektr magnitli yakorv, 6-forsunka korpusi, 7-forsunka ignasi, 8-zichlagich. 9-to`zitgich plastini.

Elektr gidravlikli forsunka. Elektr gidravlikli forsunkalar dizelli dvigaellarda o`rnatiladi. Ayniqsa, “Common-Rail” jihozli ta`minlash tizimida foydalanilgan.

Forsunkani tuzilishi elektr magnitli klapan 4, boshqaruvchi kamera 2, kiritish 10 va chiqarish 3 drossellaridan iborat.

